

VII. TOSHKENT VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil yanvar-dekabr

1. Chakana savdo tovar aylanmasi
2. Ulgurji savdo tovar aylanmasi
3. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi
4. Tushumtirishlar


1. Chakana savdo tovar aylanmasi

2026- yil 1- yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **8 830** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **28** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **8 802** tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi **45 213,6** mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **110,6** % ga teng bo'ldi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **5 486,7** mlrd so'mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan **93,9** % ni tashkil etdi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **39 726,9** mlrd so'mni (**113,4** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **3 533,5** mlrd so'mni (**109,2** %) tashkil etdi.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)



Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o‘shish sur‘ati,
(% da)

	Hajmi, mlrd so‘m	O‘shish sur‘ati % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Toshkent viloyati	45 213,6	110,6	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	755,2	107,7	1,7
Olmaliq	3 626,0	111,2	8,0
Angren	2 847,5	108,1	6,3
Bekobod	1 962,1	108,5	4,3
Ohangaron	1 458,7	109,4	3,2
Chirchiq	2 201,6	108,9	4,9
Yangiyo‘l	2 516,7	110,3	5,6
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	1 633,9	108,1	3,6
Ohangaron	643,3	108,0	1,4
Bekobod	859,4	112,9	1,9
Bo‘stonliq	2 583,6	110,3	5,7
Bo‘ka	1 544,6	109,7	3,4
Quyi Chirchiq	647,8	113,5	1,4
Zangiota	5 197,1	115,8	11,5
Yuqori Chirchiq	1 571,0	110,5	3,5
Qibray	3 476,0	114,7	7,7
Parkent	1 606,9	110,0	3,6
Piskent	1 028,0	109,9	2,3
O‘rta Chirchiq	642,5	109,8	1,4
Chinoz	1 180,1	109,9	2,6
Yangiyo‘l	1 411,0	105,0	3,1
Toshkent	3 697,1	110,1	8,2
Yashirin iqtisodiyot	2 123,5	109,8	4,7

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida Zangiota, Toshkent, Qibray tumanlari, Olmaliq, Angren, Yangiyo‘l shaharlari ulushi boshqa hududlarga nisbatan yuqoridir.

2. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil 1- yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **5 351** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **36** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **5 315** tani tashkil qildi.


Toshkent viloyati bo'yicha 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **64 337,0** mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **13,7** % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining viloyat bo'yicha ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi **53 385,0** mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **12,2** % ga to'g'ri keldi. Toshkent viloyatining jami ulgurji savdo aylanma hajmidagi ulushi **83,0** % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'ati Quyi Chirchiq (*29,7 m.*), Zangiota (*9,1 m.*) tumanlari hamda Bekobod (*191,5 m.*) shahrida kuzatildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi

(mlrd so'm)



Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o‘shish sur‘atlari
(foizda)

	Hajmi, mlrd so‘m	O‘shish sur‘ati % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Toshkent viloyati	64 337,0	113,7	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	266,5	105,9	0,4
Olmalik	1 913,3	114,1	3,0
Angren	1 498,9	113,7	2,3
Bekobod	769,6	108,5	1,2
Ohangaron	3 765,9	104,4	5,9
Chirchiq	4 008,0	115,5	6,2
Yangiyo‘l	2 514,9	142,8	3,9
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	252,3	109,2	0,4
Ohangaron	1 087,1	111,5	1,7
Bekobod	305,3	111,5	0,5
Bo‘stonliq	1 183,5	132,1	1,8
Bo‘ka	275,5	107,5	0,4
Quyichirchiq	767,2	157,3	1,2
Zangiota	13 699,5	109,8	21,3
Yuqori Chirchiq	1 821,9	104,9	2,8
Qibray	10 124,0	120,2	15,7
Parkent	379,1	117,2	0,6
Piskent	399,7	104,4	0,6
O‘rta Chirchiq	745,5	104,8	1,2
Chinoz	1 619,1	124,2	2,5
Yangiyo‘l	1 067,1	120,4	1,7
Toshkent	6 069,0	106,1	9,4
Yashirin iqtisodiyot	9 804,1	112,5	15,3

Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida Zangiota, Qibray, Toshkent tumanlari, Chirchiq, Ohangaron, Yangiyo‘l shaharlari ulushi boshqa hududlarga nisbatan yuqoridir.


3. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi

2026- yil 1- yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **2 801** tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **11** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 790** tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **16 063,0** mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan **11,1 %** ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **79,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish sohasidagi eng yuqori o'sish sur'ati Parkent (**127,0 %**) va Bo'stonliq (**119,2 %**) tumanlari hamda Chirchiq (**117,6 %**) shahrida kuzatildi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



4. Tushuntirishlar

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.